https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2016
5. World Bank. World Bank to Support Uzbekistan in Developing the Digital Economy and Creating New Jobs in the Information Technology Sector. 30 November 2023.
https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2023/11/30/world-bank-to-support-uzbekistan-in-developing-the-digital-economy-and-creating-new-jobs-in-the-it-sector

YOSHLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA ULARNING IQTISODIY O‘SISHGA QO‘SHAYOTGAN HISSASI

Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, Iqtisodiyot va turizm kafedrasi dotsenti, PhD
Mirzamaxmudova Dinora Sharof qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, iqtsodiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.
dinaramirzamahmudova056@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni band qilish va tadbirkorlikka jalb etish masalalari tahlil qilinadi. Rasmiy ma’lumotlar asosida yoshlar ishtirokidagi tadbirkorlik subyektlari ko‘rsatkichlari hamda 2026-yil uchun belgilangan bandlik vazifalari ko‘rib chiqiladi. Davlat dasturlari samaradorligini baholashda reja ko‘rsatkichlari bilan amalda erishilgan natijalarni farqlash, ish o‘rinlarining sifati va barqarorligini o‘lchash zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: yoshlar bandligi, iqtisodiy faollik, davlat dasturlari, tadbirkorlik, mehnat bozori, samaradorlik, inson kapitali.

O‘zbekistonda yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish va ularni barqaror bandlik bilan ta’minlash mamlakatning demografik salohiyatidan samarali foydalanish, inson kapitalini rivojlantirish hamda iqtisodiy o‘sishning inklyuzivligini ta’minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvar holatida 14–30 yoshdagi yoshlar soni 9,63 million kishini yoki mamlakat aholisining 25,7 foizini tashkil etgan. Shu bilan birga, Jahon bankining Xalqaro mehnat tashkiloti baholariga asoslangan ma’lumotlari 2025-yilda 15–24 yoshdagi iqtisodiy faol aholi orasida ishsizlik darajasi 11,38 foiz bo‘lganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, 2024-yilda mazkur yosh guruhining 15 foizi ta’lim, bandlik yoki kasbiy tayyorgarlik jarayonlarida ishtirok etmagan. Ushbu ko‘rsatkichlar yoshlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish bilan bir qatorda, ularni ish bilan ta’minlashning sifati va barqarorligini oshirish ham dolzarb vazifa ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli yoshlar bandligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlarining natijadorligini kompleks baholash, ularning iqtisodiy va ijtimoiy

samaralarini aniqlash hamda mavjud mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish zarur. Jahon bankining O‘zbekistonda yoshlar bandligiga bag‘ishlangan tadqiqoti kasbiy tayyorgarlikni mehnat bozori talabi bilan uyg‘unlashtirish va dastur natijalarini vaqt davomida kuzatish zarurligini ta’kidlaydi.[1]

Iqtisodiy faollik — shaxsning mehnat bozorida ish bilan band bo‘lishi yoki ish izlayotgan faol qatlamga mansubligini anglatadi. Yoshlarning iqtisodiy ishtiroki bundan kengroq tushuncha bo‘lib, yollanma mehnat, o‘zini o‘zi band qilish, tadbirkorlik, kasbiy tayyorgarlik va innovatsion faoliyatni ham qamrab olishi mumkin. Iqtisodiy faollik, bandlik va ta’lim yoki kasbiy tayyorgarlikda qatnashish bir xil statistik tushuncha emas; ko‘rsatkichlarni taqqoslashda yosh chegarasi va hisoblash metodologiyasini aniq ko‘rsatish kerak. Yoshlar bandligini qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar odatda kasbga o‘qitish, ishga joylashtirish xizmatlari, ish beruvchilarni rag‘batlantirish, tadbirkorlikni moliyalashtirish va amaliyot dasturlarini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab yoshlar siyosati doirasida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator institutsional va iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, yosh tadbirkorlar uchun imtiyozli kreditlar ajratish, startap loyihalarni moliyalashtirish, biznes inkubatorlar tashkil etish hamda soliq imtiyozlarini joriy etish kabi mexanizmlar orqali yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan dasturlar kengaytirildi.“Yoshlar biznesi”, “Kelajakka qadam”, “Yoshlar bandligi dasturi” hamda yoshlar uchun yer ajratish tashabbuslari ushbu yo‘nalishdagi muhim mexanizmlar hisoblanadi.[2]

O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2026-yil 13-oktabrda e’lon qilingan ma’lumotiga ko‘ra, 2026-yil 1-oktabr holatida mamlakatda jami 559 967 ta tadbirkorlik subyekti mavjud bo‘lgan. Shulardan 114 554 tasi yoshlar ishtiroki mavjud bo‘lgan subyektlar sifatida qayd etilgan. Bu jami subyektlarning qariyb 20,5 foiziga teng. Yoshlar ishtirokidagi subyektlar soni 2025-yilning shu davriga nisbatan 11 163 taga yoki 10,8 foizga oshgan.[3]

Yoshlarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki mamlakatning iqtisodiy o‘sishi, mehnat bozori samaradorligi, tadbirkorlik muhiti va innovatsion salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar mehnat resurslarining faol qismi sifatida ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish jarayonida qatnashib, iqtisodiyotda qo‘shilgan qiymat yaratilishiga hissa qo‘shadi. Ularning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi mehnat unumdorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish uchun imkoniyat yaratadi. Yoshlar ishtirokining amaliy natijalaridan biri yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va aholi bandligining oshishidir. Masalan, qishloq hududlarida yoshlarning issiqxona xo‘jaliklari, chorvachilik, mahsulotlarni qayta

[1] Honorati, M., & Marguerie, A. C. (2021). Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. World Bank.

[2] Saboxat Isakjanova — “Yoshlar tadbirkorligining bandlikni ta’minlashdagi roli va ta’siri (O‘zbekiston misolida)”.Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 2026, 17-jild, 263–269-betlar.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. (2026, 13-oktabr). “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari”.

ishlash va xizmat ko‘rsatish korxonalarini tashkil etishi mahalliy aholi uchun qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantiradiaxsus, maqsadli o‘quv kurslaridan foydalanilmoqda. Bunday faoliyat natijasida nafaqat yosh tadbirkorning daromadi ortadi, balki boshqa fuqarolarni ish bilan ta’minlash, mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish va hududiy iqtisodiy faollikni oshirish imkoniyati ham yuzaga keladi. Jahon bankining 2026-yilda e’lon qilingan materialida O‘zbekistonning qishloq hududlaridagi 15 mingdan ortiq mikro, kichik va o‘rta biznes subyektlari tadbirkorlikni rivojlantirish loyihasi doirasida qo‘llab-quvvatlangani, shuningdek, yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan 22 ta biznes-inkubator tashkil etilgani qayd etilgan. Ushbu misol tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mahalliy bandlik va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishda muhim vosita bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.[4]

Yoshlarning iqtisodiyotdagi ishtiroki tadbirkorlik va innovatsion faoliyat rivojida ham namoyon bo‘ladi. Xususan, yoshlarning axborot texnologiyalari, elektron tijorat, raqamli marketing va dasturiy ta’minot yaratish sohalarida faoliyat yuritishi yangi xizmatlar va biznes modellarining shakllanishiga xizmat qiladi. Masalan, yosh mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan elektron savdo platformasi kichik ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini kengroq bozorlarga olib chiqishi, xaridorlar bilan bevosita aloqalarni yo‘lga qo‘yishi va savdo xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Natijada iqtisodiy faoliyat samaradorligi oshib, kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi mustahkamlanadi. Yana bir muhim natija yoshlarning qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish tarmoqlaridagi ishtiroki orqali yuzaga keladi. Masalan, zamonaviy sug‘orish tizimlari, raqamli monitoring vositalari va resurslarni tejovchi texnologiyalardan foydalanadigan yosh fermerlar suv sarfini kamaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va hosildorlikni yaxshilashga erishishlari mumkin. Jahon bankining O‘zbekistondagi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish loyihalariga oid ma’lumotlarida qishloq aholisi, jumladan, yoshlar va ayollar uchun doimiy, mavsumiy hamda vaqtinchalik ish o‘rinlari yaratilgani ko‘rsatilgan. Bu qishloq xo‘jaligini rivojlantirish dasturlari bandlikni kengaytirish bilan birga, aholining daromad olish imkoniyatlarini ham oshirishi mumkinligini anglatadi.[5]

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning iqtisodiyotdagi ishtiroki yangi ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish va aholi farovonligini yaxshilash orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu natijalarga erishishda yoshlarning sifatli ta’lim olishi, zamonaviy kasblarni egallashi, moliyaviy resurslardan foydalanishi va mehnat bozoridagi talabga mos ko‘nikmalarni rivojlantirishi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli yoshlar bandligini ta’minlash bilan bir qatorda, ularning iqtisodiy faoliyatining samaradorligi va uzoq muddatli natijalarini baholash ham dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[4] World Bank. *Entrepreneurs Bring Jobs and Opportunity to Rural Uzbekistan*. 5 February 2026. https://www.worldbank.org/en/news/feature/2026/02/05/entrepreneurs-bring-jobs-and-opportunity-to-rural-uzbekistan

[5] World Bank. *Scaling Up Jobs for Economic Empowerment*. 4 April 2024

1. Honorati, M., & Marguerie, A. C. (2021). Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. World Bank.
2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. (2026, 13-oktabr). “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari”.
3. Saboxat Isakjanova — “Yoshlar tadbirkorligining bandlikni ta’minlashdagi roli va ta’siri (O‘zbekiston misolida)”.Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 2026, 17-jild, 263–269-betlar.
4. World Bank. *Entrepreneurs Bring Jobs and Opportunity to Rural Uzbekistan*. 5 February 2026.
5. World Bank. *Scaling Up Jobs for Economic Empowerment*. 4 April 2024

“NASIYA” BOZORI: MUDDATLI TO‘LOV ILOVALARI VA ISTEMOLCHILAR TARKIBI

Ergasheva Nafisa Baxriddinovna
Mirzu Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti jizzax filliali
Iqtisodiyou va Turizm kafedrasi katta o‘qituvchisi
Fayzullayev Abdumalik Abdurashid o‘g‘li
O‘zMu JF Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi
abdumal1k.team@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda “nasiya” (muddatli to‘lov, BNPL) bozorining rivojlanishi hamda uning yoshlar iste’mol xulq-atvoriga ta’siri tahlil qilinadi. Markaziy bank ma’lumotlari va ochiq manbalar asosida bozor dinamikasi, iste’molchilar tarkibi, yashirin qarz yuki xatarlari va tartibga solish yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan. Natijalar nasiya xarid mantiqini “yig‘ — keyin ol” modelidan “ol — keyin to‘la” modeliga o‘zgartirayotganini, bu esa moliyaviy savodxonlikni oshirish va tartibga solishni takomillashtirishni talab etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: nasiya, muddatli to‘lov, BNPL, yoshlar, qarzdorlik, iste’mol xulq-atvori, Uzum Nasiya, Alif Nasiya.

Kirish

So‘nggi yillarda raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi O‘zbekistonda iste’mol moliyalashtirishning yangi shakli — “nasiya”, ya’ni xaridni oylar bo‘yicha bo‘lib to‘lash xizmatlarining keng yoyilishiga olib keldi. Xalqaro amaliyotda bu model “hozir ol, keyin to‘la” (Buy Now, Pay Later — BNPL) nomi bilan tanilgan. Mamlakatda bu sohada Uzum Nasiya, Alif Nasiya va Payme Nasiya kabi xizmatlar faoliyat yuritadi .

Uzum Nasiya foydalanuvchilarga 12 oygacha muddatli to‘lov, 25 million so‘mgacha limit va 5000 dan ortiq hamkor nuqtada xarid qilish imkonini beradi . KPMG baholashiga ko‘ra, Alif Nasiya va Uzum Nasiya birgalikda bozorning taxminan uchdan ikki qismini egallaydi.

Tadqiqotning maqsadi nasiya xizmatlarining yoshlar iste’mol xulq-atvoriga ta’sirini baholash va bu jarayon bilan bog‘liq qarzdorlik xatarlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot savollari: (1) bozor qanday sur’atda o‘smoqda; (2) asosiy